

IKKI BUYUK SIMO

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi***Arifdjanov Zokir Toxirovich**

XV asr tarixiga nazar tashlasak, ko'z o'ngimizda beixtiyor Alisher Navoiy va Bobur siymolari gavdalanadi. Bu asr bizga Alisher Navoiydek Alloma, mutafakkir va shoirni hamda Boburdek davlat arbobi, shoir va adibni yetkazib bergani bilan nihoyatda qadrlidir. Shuning uchun ham ularni bir asrning ikki dahosi deya e'tirof etamiz. Darhaqiqat, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotini yoritib turgan ikki yorug' yulduzidir. Ularning zamondosh bo'lishi, bitta asrda yashashi Yaratganning buyuk hikmati bo'lsa, ajab emas.

Ko'pchilikka ma'lumki, buyuk bobokalonlarimiz Mir Alisher Navoiy (1441-1501) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) 42 yil farqi bilan bir-biriga zamondosh hisoblanadi.

Garchi, Bobur Navoiy bilan uchrashmagan bo'lsa-da, lekin yoshligidan uning shaxsi va ijodiga katta mehr bilan tarbiya topgan. Bobur tug'ilgan yili Navoiy buyuk "Xamsa"ni yozishga kirishgan, Samarqand taxtini egallagan 1498 yili esa Navoiy "Xazoyin-ul maoniy" devonini tuzgan edi.

Shunisi ahamiyatliki, "Boburnoma" asarida Alisher Navoiy nomi 16 marta tilga olinadi. "Boburnoma"da 1505–1506 yil voqealari bayon qilinarkan, Husayn Bayqaro haqida ma'lumot berilayotgan o'rinlarda Alisher Navoiy shaxsiga ham to'xtaladi. Jumladan, shunday fikrlarni kuzatamiz: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bilan to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytgon emas".

Ijodining ilk bosqichlarida Navoiy Bobur uchun uning o'z ta'biricha aytganda, "naziri yo'q ustod" vazifasini bajargan. Tarixiy kitoblar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning o'zaro maktub yozishganlari haqida ma'lumot beradi. Boburning o'zi ham "Boburnoma" asarida Navoiydan maktub olgani haqida yozarkan, "Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda Alisher tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobatyi borib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitibyi borib edim. Javob kelguncha tafri qava g'avg'o bo'ldi", degan so'zlarni keltiradi. Mazkur asarida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyati haqidagi fikrlarini ochiq-oydin yozgani, Navoiyning turkiy tilda bitgan g'azallariga yuksak baho bergani ham uning Navoiyga bo'lgan chuqur ehtiromidan dalolatdir. Lekin ayni paytda Bobur rostgo'y tanqidchi ham edi. Chunonchi, u Navoiy ruboiylarining vaznlari haqida fikr bildirarkan, ayrim o'rinlarda xatolar borligini ta'kidlaydi. Shuningdek, buyuk shoirning forsiy devonidagi g'azallar ancha bo'sh ekanini aytadi: "Yana "Mezon ul avzon" nomli aruz kitobini bitgan, ancha mulohaza talab: yigirma to'rt ruboiy vaznining to'rt vaznida xato qilgan. Ba'zi bahrlarning vaznlarida ham yanglishgan. Bu aruzdan xabardor

odamga ma'lum bo'ladi. Forsiy devon ham tartib bergan. Forsiy nazmda "Foniy" taxallusini qo'llagan. Ba'zi baytlari yomon emasdur. Biroq aksari sust va bo'sh tobdir". Umuman olganda, Boburni Alisher Navoiy asarlari haqida tanqidiy fikr bildirgan kam sonli ijodkorlardan biri deyish ham mumkin.

Maqsud Shayxzodaning Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur munosabatlariga doir so'zlari ko'pchilikka yod bo'lib ketgan: "Albatta, Navoiy Bobursiz Navoiy bo'lib qoldi, lekin Boburni Navoiysiz tasavvur qilish qiyin". Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy yaratgan adabiy va she'riy an'analarning davomchisi sanaladi. Aytaylik, Navoiy she'riy vaznlar xususida "Mezon ul-avzon" asarini yozgan bo'lsa, Bobur aruz qoidalari haqida "Mufassal" nomli bebaho asarni bitdi. Ma'lumki, Navoiy ijodida hayot mohiyatini anglashga urinish istagi ustunlik qiladi. Shoirning qator dostonlari, "Tarixi hukamo va anbiyo" nomli tarixiy asari, ayniqsa falsafiy mazmundagi "Lison ut-tayr" dostoni shundan darak beradi. Ayni xususiyatdan Bobur ijodi ham xoli emas. Chunki, u islomiy aqidalar, shariat qonunlari haqida "Mubayyin" nomli asarni yaratdi.

Bu ikki buyuk ijodkorni ijodining bunchalik yaqinligi, ularning bir maktabdan yoki bir sarchashmadan, ya'ni Sharq asarlaridan diniy va dunyoviy ilmlarni o'zlashtirganliklaridandir, xususan ularni she'riyatga bo'lgan ixlosi fors she'riyati bustonidan bahramand bo'lganliklarini dalolat beradi, bizga ma'lumki Navoiyning yoshlik davridagi eng sevimli kitoblaridan biri Attorning "Mantiq-ut tayr" dostoni bo'lgan va U butun dostonni yod bilgan. Bu ikki buyuk ijodkormiz shubhasiz Fors adabiyoti vakillari-mashhur shoirlari Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Mavlono Rumi, Umar Xayyom, va Firdavsiy shohasarlari, g'azal va masnaviylarini tarjimasiz uqib, ularning ma'rifatida tarbiyalangan va bu shohasarlardan ilhomlangan, natijada ikki Buyuk ijodkor fors tilida ham yuksak darajadagi she'rlar yozib qoldirgan. Fors adabiyoti ta'sirini ularning ijodida yaqqol ko'ra olamiz. Masalan Firdavsiydagi shoh Jamshid, jomi Jamshid obraziga, Bobur va Navoiy g'azallarida duch kelamiz: Masalan Jamshid (qator g'azallarda qisqartirilgan Jam shaklida keltirilgan) obrazi "G'aroyib us-sig'ar" devonida 18 marta, "Navodir ush-shabob" devonida 21 marta, "Badoye' ul-vasat" devonida 24 marta, "Favoyid ul-kibar" devonida 14 marta, umumiy hisobda 77 marta turli poetik vazifalarni bajarish yo'lida qo'llanilgan. Quyidagi baytda Sulton Husayn Boyqaroning sahovat va karam bobida tengsiz ekanini ta'kidlash uchun Jamshidni misol keltiradi:

Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,
 Shoh G'oziyg'a karam avvalgilarga o'xshamas.

Yoki:

Ey xush ul maykim, ang zarf o'lsa bir sing'on safol,
 Jom o'lur getiynamo, Jamshid – ani ichgan gado.

Yoki Shayx Sa'diyning quyidagi baytiga ahamiyat beraylik:

چې دست؟ ای مان بگو که سوالی عقل از ک مردم

است ادب ای مان که گ - فت دل م گ گوش در ع قل
ن یست ان - سان است ادب ب ی اگ بر ای زاده آدم
است ادب ح یوان و آدم ب - نی ب - ین ما ف برق

Alloma Navoiy ham axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan, deydi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi». Alisher Navoiy asarlarida ilm odobi, jamiyat boshqaruv odobi, adolatli boshliq odobi masalalari yuqori o‘rinda turadi.

Shayx Sa‘diyning BMT peshtoqida yozilgan she‘ri:

پ یکرزد یک اعضای آدم ب نی
گ وهرزد یک ز آف ری نش در که
روزگار آورد درد به عضوی چو
قرار نماز در اعضا هادگر
غمی بی دی نگران مدنت کز تو
آدمی نه ند نامت که نه شاید

Shu ma‘noda Navoiy ham deydi:

Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Ko‘rib turganimizdek buyuk shoirlar ijodi Markaziy Osiyo xalqlarining o‘rtasidagi uzoq tarixga ega bo‘lgan do‘stlik va hamkorlik an‘analarini yana bir isboti, namoyishi ekanini ko‘rsatadi. Adabiyot va ilmda chegaralar yo‘q, ta‘lim jarayonida buyuklarning shohasarlardan foydalanish natijasida talabalarda barcha ijobiy axloqiy fazilatlar yuksaladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Navoiy va Bobur ijodi hamda qarashlari o‘rtasidagi mushtaraklik va tafovutlarga qaramasdan mumtoz adabiyot tarixidagi bu ikki tog‘, bu ikki cho‘qqi bo‘lgan Navoiy va Bobur ijodi go‘zallik, fasohat va nafosat cho‘qqisi bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. A. Navoiy. Tanla
2. ngan asarlar (3 jildli). Toshkent, 1948.
2. A.Navoiy. Asarlar (15 jildli), 1—15-jildlar, Toshkent, 1963—1968.
3. Sarafiddinov A., Alisher Navaiy, Toshkent, 1939.
4. Uyg‘un, Alisher Navoiy, Toshkent, 1942.
5. G‘iyosiddin Xondamir, Makorim ul-axloq, Toshkent, 1948.
6. Bertels Ye. E., Navoi, M.L., 1948.
7. Hayitmetov A., Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari, Toshkent, 1959.
8. Qodirov M., Navoiy va sahna san‘ati, Toshkent, 2000.
9. Ibrohim Haqqul, Navoiyga qaytish, Toshkent, 2007.

10. Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh («Tarixi Rashidiy»dan)
11. Nuritdinov M., Boburiylar sulolasi, Toshkent, 1994.
12. Azimjonova S., Zahiriddin Muhammad Bobur, Maqolalar to‘plami, Toshkent, 1995.
13. Arifdjanov, Z. T. (2021). VARIANTS OF SIMPLE VERB خواستن. Theoretical & Applied Science, (6), 418-420.
14. Arifdjanov, Z. (2020). (2020). The semantic groups of prefixal verbs in the persian language and their functional equivalents (using the verb برداشتن as an example). The Light of Islam: Vol, (2), 10.